

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi Ravshanov Sanjar Tolibjonovichning Biotexnologiya va ekologiya fakulteti Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich, 103-guruh talabalariga "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanidan Axborot xavfsizligi mavzusidagi dars ishlanmasiga**  
**TAQRIZ**

Axborot xavfsizligi mavzusi bo'yicha amaliy darsini ishlab chiqish talabalarga axborot tizimlari va ma'lumotlarini himoya qilish asoslarini o'rgatishning asosiy vazifasidir.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi Ravshanov Sanjar Tolibjonovich tomonidan tayyorlangan Axborot xavfsizligi mavzusidagi ochiq amaliy mashg'ulot ishlanmasi Biotexnologiya va ekologiya fakulteti, Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishining 1-bosqich 103-guruh talabalariga mo'ljallangan.

Tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasida kriptografiyadan tortib xavfsizlik auditigacha bo'lgan keng ko'lamli ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lib, talabalarga mavzu bo'yicha har tomonlama tushuncha beradi.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasida Antivirus dasturlaridan foydalanib, uning bazasini yangilash, virus dasturlarini qidirib topish va o'chirish bo'yicha topshiriqlarning kiritilishi materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va kasbiy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Axborot xavfsizligi mavzusi bo'yicha tayyorlangan amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi, amaliy mashg'ulotni topshiriqlari, mashg'ulotni mustahkamlash uchun tuzilgan testlar va savollar hamda tarqatma materiallar amaliy mashg'uloti mavzusining tayanchi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi Ravshanov Sanjar Tolibjonovich tomonidan tayyorlangan Axborot xavfsizligi mavzusidagi ochiq amaliy mashg'uloti ishlanmasidan dars jarayoniga foydalanish mumkin deb hisoblayman.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
"Axborot texnologiyalari, tabiiy va  
aniq fanlar" kafedrasida dotsent



X.Urdushev

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi Ravshanov Sanjar Tolibjonovichning Chorvachilik va texnologiyalar fakulteti Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishi 1-bosqich, 103-guruh talabalariga "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanidan Axborot xavfsizligi mavzusidagi dars ishlanmasiga**  
**TAQRIZ**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi Ravshanov Sanjar Tolibjonovich tomonidan Chorvachilik va texnologiyalar fakulteti, Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishi 1-bosqich talabalariga mo'ljallangan "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanidan "Axborot xavfsizligi" mavzusida tayyorlangan ochiq dars ishlanmasi zamonaviy pedagogik va uslubiy talablarga to'liq javob beradigan holda ishlab chiqilgan.

Mazkur dars ishlanmasi amaldagi o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi (sillabus) hamda kalendar reja asosida tuzilgan bo'lib, mavzu tanlovi bugungi raqamli texnologiyalar keng rivojlanayotgan davr talablariga mos ravishda dolzarb hisoblanadi. Dars ishlanmasida axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari, uning jamiyat va turli sohalardagi ahamiyati izchil va tizimli yoritilgan.

Ochiq dars ishlanmasida axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, kompyuter viruslari va ularning turlari, zararli dasturlarning tarqalish usullari, antivirus dasturlarining ishlash tamoyillari hamda ularning imkoniyatlari haqida keng va tushunarli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, talabalarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dars ishlanmasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanilgan. Talabalar bilan savol-javoblar tashkil etilishi, amaliy topshiriqlarning berilishi hamda mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan yondashuv dars samaradorligini oshiradi. Tayyorlangan tarqatma materiallar mavzuning asosiy tushunchalarini qamrab olgan bo'lib, talabalarining bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchining darsni tashkil etish mahorati, mavzuni yetkazish uslubi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalari yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Dars jarayoni mantiqiy ketma-ketlikda, aniq va tushunarli tarzda olib borilgan.

Xulosa qilib aytganda, Ravshanov Sanjar Tolibjonovich tomonidan tayyorlangan "Axborot xavfsizligi" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi ilmiy-uslubiy jihatdan puxta, amaliy ahamiyatga ega hamda zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqilgan bo'lib, undan o'quv jarayonida samarali foydalanish mumkin va tavsiya etiladi.

Samarqand davlat pedagogika instituti  
"Matematika va informatika" kafedrasida  
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

